



## NAVOIY VILOYATI TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

PhD, dots. **Berdimurodov Azizjon**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0003-1130-9874

[aziz23011989@gmail.com](mailto:aziz23011989@gmail.com)

**Turayev Abduvoxid**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0009-9997-1053

[abduvoxidturayev70@gmail.com](mailto:abduvoxidturayev70@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Navoiy viloyatining turizm salohiyatini oshirish borasidagi ustuvor yo'nalishlar aniqlangan bo'lib, hududdagi turizm infratuzilmasi, raqamli transformatsiya jarayonlari va barqaror turizm tamoyillari tahlil etiladi. Tadqiqotda klaster yondashuvi, raqamli innovatsiyalar hamda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida ilmiy takliflar ishlab chiqilgan. Natijalar Navoiy viloyati turizm sektorining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va hududiy rivojlanish samaradorligini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Navoiy viloyati, turizm salohiyati, klaster yondashuvi, raqamli transformatsiya, barqaror turizm.

## ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

PhD, доц. **Бердимуродов Азизжон**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Тураев Абдувахид**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются приоритетные направления повышения туристического потенциала Навоийской области. Проанализированы состояние туристической инфраструктуры, процессы цифровой трансформации и принципы устойчивого туризма. На основе кластерного подхода, цифровых инноваций и "зелёной экономики" разработаны предложения по повышению конкурентоспособности и эффективному использованию ресурсов региона. Результаты могут служить научной основой для разработки стратегии развития туризма в Навоийской области.

**Ключевые слова:** Навоийская область, туристический потенциал, кластерный подход, цифровая трансформация, устойчивый туризм.

## PRIORITY DIRECTIONS FOR INCREASING THE TOURISM POTENTIAL OF THE NAVOI REGION

PhD, assoc. prof. **Berdimurodov Azizjon**  
Samarkand Institute of Economics and Service  
**Turayev Abduvoxid**  
Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract.** *This article examines the priority directions for enhancing the tourism potential of Navoi region, Uzbekistan. It analyzes the current state of tourism infrastructure, digital transformation processes, and principles of sustainable tourism. Based on a cluster approach, digital innovation and green economy principles, scientific recommendations were developed to increase regional competitiveness and ensure efficient use of resources. The results provide a basis for strategic planning and sustainable tourism policy in the Navoi region.*

**Keywords:** *Navoi region, tourism potential, cluster approach, digital transformation, sustainable tourism.*

### Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm milliy iqtisodiyotning strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizning barcha hududlarida mavjud turizm salohiyatidan to'liq foydalanishga qaratilgan majmual chora-tadbirlarni amalga oshirishga e'tibor qaratilib, tashqi va ichki turizmni rivojlantirish, xizmat ko'rsatishning son va sifat jihatidan jahon andozalariga mos ravishda yaxshilanishini ta'minlash hamda Respublika iqtisodiyotining o'sishida turizm ulushini muntazam oshirib borishga qaratilgan tegishli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, bu borada qabul qilingan Prezidentimizning 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-sonli, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-sonli, 2025-yil 15-maydagi PF-87-sonli Farmonlari shular jumlasidandir.

Turizm salohiyati yuqori bo'lgan, ammo undan hali yetarli darajada foydalanilmay kelinayotgan hududlardan biri Navoiy viloyatidir. Navoiy viloyati o'zining markaziy geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari, madaniy-tarixiy obidalar va rivojlangan sanoati bilan ajralib turadi. Hududda "Sarmishsoy" petrogliflari, "Mir Said Bahrom maqbarasi", "Abdullaxon madrasasi" kabi obyektlar xalqaro turizm yo'nalishlariga kiritilgan (Madaniyat vazirligi, 2023). Shu bilan birga, Navoiyda transport va raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, turizm salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishi uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqola Navoiy viloyati turizm salohiyatini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish, hududiy raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini aniqlash va barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

### Adabiyotlar sharhi.

Turizm sohasining rivojlanishi va hududiy salohiyatdan foydalanish mexanizmlari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida yoritilgan. Masalan, Usmonova va Achilov (2023) O'zbekistonda turizm va rekreatsion xizmatlar bozorining holatini tahlil qilib, hududiy turizmni rivojlantirishda klaster tamoyili asosiy yo'nalish bo'lishini ta'kidlagan (CyberLeninka, 2023).

Xorijiy tadqiqotlar orasida Porter (1998) tomonidan taklif etilgan klaster modeli turizm sohasida resurslar, korxonalar va infratuzilma o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tizimli ko'rsatadi. Shu asosda Scott Noel va Baggio "Network theory of tourism clusters" modelida mintaqaviy turizm barqarorligini tahlil qilish uchun tarmoq aloqalari indeksini taklif etgan (Annals of Tourism Research).

Mahalliy olimlardan A.Topilov (2022) "Hududlarda turizm sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari" nomli maqolasida hududiy turizmni baholash uchun ko'rsatkichlar tizimini taklif etadi, unda samaradorlik indikatori va investitsion rentabellik nisbatlari asosiy baholovchi o'lchov sifatida keltiriladi.

Iqtisodchi olimlardan A.Berdimurodov (2022) O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish borasida ko'plab chora-tadbirlar belgilanayotgan bo'lishiga qaramasdan, mavjud salohiyatdan foydalanish darajasi nisbatan past deb hisoblaydi, uning fikricha, buning asosiy sabablaridan biri resurslarning yetarli tarzda o'rganilmaganligi, xorijiy investitsiyalarning jalb qilinish holati kamligi hamda infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligidir.

Raqamli transformatsiya bo'yicha IHTT (2024) "Digital Transformation in Tourism" hisobotida turizmga raqamlashtirish jarayonlari sayyohlar oqimini 30 % gacha oshirishi mumkinligini ko'rsatgan. Shuningdek, BTT (2023) hisobotida barqaror turizm konsepsiyasining hududiy darajada amalga oshirilishi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Navoiy viloyatining turizm salohiyatini oshirish uchun klasterlash, raqamli boshqaruv va barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiyalash muhim. Ammo hududiy xususiyatga asoslangan modellar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqot ishida bilish nazariyasining mantiqiy yondashuv, induksiya va deduksiya, qiyosiy va omilli tahlil, zamon va makon, taqqoslash, monografik kuzatish kabi usullardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Navoiy viloyati 2024 yil yakunlariga ko'ra 35 ta mehmonxona, 17 ta oilaviy mehmon uyi, 12 ta dam olish maskani va 10 dan ortiq turistik firmalari bilan turizm tarmog'i faol rivojlanib borayotgan hudud hisoblanadi. Shunga qaramasdan, turistlarning o'rtacha tunash muddati o'rtacha 1,4 kechadan oshmasligi ko'rsatilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi va turistik dasturlarning yetarli emasligini bildiradi.

Asosiy turistik oqim "Sarmishsoy petrogliflari", "Karmana tarixiy markazi" hamda "Qiziltepa karvon yo'li"ga to'g'ri kelmoqda. Biroq bu yo'nalishlarning ko'pchiligi raqamli xaritalarga kiritilmagan, infratuzilma nuqtai nazaridan ham nomutanosib rivojlangan.

Shu o'rinda Navoiy viloyatining turizm salohiyatini chuqurroq baholash uchun faqatgina sifat jihatdan tahlil qilish yetarli emasligini inobatga olgan holda, hududning real rivojlanish sur'atlarini miqdoriy (indikatorli) yondashuv orqali ham o'lchash zarurligi haqida xulosaga keldik. Buning uchun tadqiqotda ikki turdagi muhim integral ko'rsatkichlardan foydalanildi. Bular:

*HTSK* (hududiy turizm samaradorligi koeffitsienti) – muallif tomonidan ishlab chiqilgan integral indeks bo'lib, u turizm faoliyati hajmi bilan resurs salohiyati o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi. Bu ko'rsatkich yordamida hududdagi turistik imkoniyatlardan qanchalik samarali foydalanilayotganligi aniqlanadi. Ushbu metodologiya xalqaro tajribadagi "Tourism Performance Indicator" modelining soddalashtirilgan ko'rinishiga asoslanadi (OECD, 2024; UNWTO, 2023).

*HTRI* (hududiy turizm raqobatbardoshlik indeksi) – turizm sohasining bozor sharoitidagi raqobat darajasini ko'rsatadi. Unda turistlar oqimi, tunash muddati va infratuzilma yuklamasi inobatga olinadi.

Bizningcha, mazkur ko'rsatkichlar hududiy turizmni kompleks tahlil qilish imkonini beradi, ya'ni:

*HTSK* – "ichki samaradorlik" (resurslardan foydalanish darajasi),

*HTRI* – "tashqi raqobatbardoshlik" (bozor faoliyati va xizmat sifati)ni aks ettiradi.

Mazkur ko'rsatkichlarning parallel hisoblanishi Navoiy viloyati turizm tizimini har ikki jihatdan – iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

$$HTSK = \frac{I_t}{I_r}$$

Bu yerda:

$I_t$  - turizm faoliyati indeksi (sayyohlar soni, tunashlar, xizmatlar hajmi);

$I_r$  - resurs salohiyati indeksi (turistik obyektlar soni, foydalanish darajasi, infratuzilma rivoji).

**HTSK > 1,0** - resurslar samarali ishlatilmoqda, **HTSK < 1,0** - salohiyat yetarlicha ishga solinmagan.

Navoiy viloyatida 2024-yil uchun  $I_t = 0.19$ ,  $I_r = 0.45$  bo'lib,  $HTSK = 42\%$ ni, ya'ni viloyatda turizm resurslaridan foydalanish darajasi atigi 42 % ni tashkil etishini bildiradi.

Tadqiqotimizda qo'llanilgan hududiy turizm raqobatbardoshlik indeksi (HTRI) modeli Travel & Tourism Competitiveness Index (World Economic Forum, 2023) modelining moslashtirilgan shakli bo'lib, hududiy turizm salohiyatini nisbiy tarzda baholashga mo'ljallangan.

U quyidagicha aniqlanadi:

$$HTRI = \frac{T_{in} * S_u}{R_t}$$

Bu yerda:

$T_{in}$  - hududga kirib kelgan sayyohlar soni (ming kishi/yil);

$S_u$  - joylashtirish vositalarida o'rtacha tunash muddati (kecha);

$R_t$  - turizm resurslarining yuklama koeffitsienti (resurslar, infratuzilma, xizmatlar narxlari nisbati).

**HTRI ≥ 1,0** - hudud raqobatbardosh; **HTRI < 1,0** - resurslardan foydalanish samarasi past.

#### 1-jadval

Navoiy viloyatida turizm faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari  
(2018–2024-yillar)

| Yillar | Turistlar soni<br>(kishi) | O'rtacha qolish<br>muddati | Mehmonxonalar<br>soni | HTSK (muallif<br>modeli) | HTRI |
|--------|---------------------------|----------------------------|-----------------------|--------------------------|------|
| 2018   | 21 450                    | 1,1                        | 20                    | 0,31                     | 0,52 |
| 2020   | 26 171                    | 1,3                        | 24                    | 0,36                     | 0,61 |
| 2022   | 45 920                    | 1,4                        | 30                    | 0,41                     | 0,72 |
| 2024   | 64 172                    | 1,5                        | 35                    | 0,42                     | 0,79 |

**Manba:** Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


Jadvaldan ko'rinib turibdiki, HTSK 2018 yildagi 0,31 darajadan 2024 yilda 0,42 gacha o'sgan, bu hududiy turizm samaradorligining asta-sekinlik bilan o'sib borayotganligini, ammo hali ham past foydalanish darajasida ekanligini ko'rsatadi.

2018-2024 yillar oralig'ida turistlar soni 3 barobarga, mehmonxonalar soni esa 1,75 barobarga oshgan. Eng muhim ko'rsatkich – HTRI qiymati 0,52 dan 0,79 gacha ko'tarilgan. Bu hududning turizm raqobatbardoshligi asta-sekin oshayotganini bildiradi.

Olingan natijalar Navoiy viloyatida turizm infratuzilmasi va turistlar tashrifi o'sish dinamikasiga ega bo'lsa-da, tadqiqotlar davomida bu o'sish strukturaviy jihatdan bir maromda emasligi aniqlandi. Turizm resurslari hudud bo'yicha notekis taqsimlangan, ayrim tumanlarda turistik oqim yuqori, boshqalarda esa deyarli sust. Bu holat hududda tizimli boshqaruv modelini joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, mavjud turizm resurslarini iqtisodiy, geografik va xizmat tarmoqlari kesimida birlashtirish, ularni o'zaro koordinatsiyalashgan klaster tizimiga keltirish hududiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi, – deb o'ylaymiz. Bizningcha, keyingi bosqichlarda Navoiy viloyatida turizm resurslari turlari – tarixiy, ekoturizm va sanoat merosi – klaster tamoyillari asosida boshqarilishi lozim.

Hududda turizmni kompleks rivojlantirish uchun “Zarafshon-Sarmishsoy ekoturizm klasteri”, “Karmana-Qiziltepa madaniy yo'lagi” va “Nurota-Qizilqum ekstremal zonasi” kabi klasterlarni shakllantirish taklif etiladi. Har bir klaster yagona marketing va boshqaruv platformasiga ega bo'ladi. Porter (1998) modeli asosida bu yondashuv iqtisodiy sinergiyani kuchaytiradi va xizmat zanjirini integratsiyalaydi.



### 1-rasm. Navoiy viloyati turizm klasterlari integratsiyasi

**Manba:** Porter modeli asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu model transport, joylashtirish, servis, madaniyat va marketing tarmoqlarining o'zaro bog'liqligini hamda ularni boshqaruvchi “Investitsiya va boshqaruv” markaziy tugunini ifodalaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti – IHTT (2024) ma'lumotlariga ko'ra, turizm raqamlashtirish turistlar oqimini 25-30 % gacha oshiradi. Shu bois raqamlashtirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- GAT (geoaxborot tizimlari) asosidagi raqamli xarita yaratish;
- turistik ma'lumotlar jamlangan QR-kodli tarqatma materiallarni yaratish;
- AR/VR virtual yo'riqnomalar ishlab chiqish;
- onlayn-marketing tizimini joriy etish.

Mazkur chora-tadbirlar BTT (2023) tomonidan ilgari surilgan turizmning raqamli ekotizimi modeliga to'liq mos keladi. BMT maqsadlariga muvofiq, Navoiyda:

- eko-mehmon uylari va quyosh energiya tizimlari joriy etilishi;
- “yashil kreditlar” mexanizmini ishlab chiqish (World Bank, 2023);
- “homestay” modeli bo'yicha mahalliy aholini turizm faoliyatiga keng jalb etish kabi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi.

### Xulosa va takliflar.

Izlanishlar natijasida Navoiy viloyatining turizm salohiyati amalda foydalanilayotganidan ancha yuqori ekanligi aniqlandi hamda turizm salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

klaster yondashuvi asosida turizm obyektlarini integratsiyalash;

“Smart Tourism” texnologiyalarini joriy etish orqali boshqaruvni raqamlashtirish;

“Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirish;

mahalliy jamoalar va tadbirkorlik subyektlarini faol jalb etish;

raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini ilmiy asosda monitoring qilish.

Fikrimizcha, mazkur yondashuvlarning amalga oshirilishi Navoiy viloyatining 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning asosiy turizm markazlaridan biriga aylanishiga imkon beradi.

#### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich (2022). *GLOBALASHUV SHAROITIDA ERKIN TURISTIK HUDUDLARNI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI*. *Journal of marketing, business and management*, 1 (8), 23-27.

Lex.uz (2019; 2023; 2024; 2025) Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2019-y., 06/19/5781/3567-son, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son, 18.01.2024-y., 06/24/9/0041-son, 20.05.2025-y., 06/25/87/0451-son.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi. (2024). *Turizm faoliyati to'g'risida ma'lumotlar, 2018-2024*. <https://navstat.uz>

OECD. (2024). *Digital Transformation in Tourism: Global Trends and Policy Responses*. Paris: OECD Publishing.

Porter, M. E. (1998). *Clusters and the new economics of competition*. *Harvard Business Review*, 76(6), 77-90.

Scott, Noel & Baggio, R. & Cooper, Christopher. (2009). *Network Analysis and Tourism: From Theory to Practice*.

Topilov, A. T. (2022). *Hududlarda turizm sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

UNWTO. (2023). *Tourism and Regional Development Report*. Madrid: United Nations World Tourism Organization.

Usmonova, Z. I., & Achilov, S. (2023). *The analysis of the development of tourist and recreational services in the Republic of Uzbekistan*. *Social and Economic Geography Journal*. <https://cyberleninka.ru/article/n/the-analysis-of-the-development-of-tourist-and-recreational-services-in-the-republic-of-uzbekistan>

World Bank. (2023). *Green Finance for Sustainable Tourism Development*. Washington D.C.: World Bank Group.

World Economic Forum. (2023). *Travel and Tourism Competitiveness Index 2023*. Geneva: WEF.